

ASARDA RUHIY TALQINNI YUZAGA CHIQARUVCHI VOSITALAR

*Normamatova Mahliyo Azimidin qizi,
O'zbekiston, Samarqand shhri,
38-maktab o'qituvchisi.*

Annatsiya: Badiiy asarda inson ruhiyatining badiiy talqini etakchilik qiladi, shu o'rinda ta'kidlash joizki, har bir qahramonning o'z qarashlari, tushunchalari uning ruhiy olamini yoritishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, har qanday badiiy asardagi obrazlar olamining o'ziga xos istiroblari, kechinmalarini yuzaga chiqarish holatlariga munosabat biladirilgan.

Kalit so'zlar: ruhiyat, kechinma, talqin, ifodalanishi, mahorat, tasvir, individuallik.

ОБЪЯСНИТЕ ДУХОВНУЮ ТОЛКОВАНИЕ В РАБОТЕ ПРОМЫШЛЕННЫЕ СРЕДСТВА

Нормамаатовой Махлие дочьАзимидина,
Узбекистан, город Самарканд,
Учитель 35-й школы.

Аннотация:

Художественное осмысление человеческой психики является ведущим в художественном произведении, и следует отметить, что взгляды и концепции каждого героя служат для освещения его духовного мира. С этой точки зрения есть реакция на ситуации выявления уникальных страстей и переживаний мира образов в любом художественном произведении.

Ключевые слова: дух, опыт, интерпретация, выражение, мастерство, образ, индивидуальность.

EXPLAIN SPIRITUAL INTERPRETATION IN THE WORK INDUSTRIAL MEANS

Normamatova Mahliyo Azimidin's kizi,
Uzbekistan, Samarkand city,
Teacher of the 35th school.

Summary:

The artistic interpretation of the human psyche is the leader in the work of art, and it should be noted that the views and concepts of each hero serve to illuminate his spiritual world. From this point of view, there is a reaction to the situations of bringing out the unique passions and experiences of the world of images in any artistic work.

Key words: spirit, experience, interpretation, expression, skill, image, individuality.

Bugunning hikoya va qissalarida fikrning badiiy ifodasi o'zgardi. "Biroq metaforaga yo'g'rilgan fikr tasavvurning metaforasiga aylanadi, fikr qilinadigan metafora his-tiyg'ularga uyg'un idrokning hosilasi. Shu bois, badiyat ehtirosli fikrdan tug'iladi, ijodkor esa o'z tasavvuridagi go'zallikni badiiy kashf etadi, yaratadi" degan edi adabiyotshunos olim Malika Rustamova. Darhaqiqat yozuvchi N.Eshonqul "Tun panjaralari" qissasida qahramon ruhiyatini yuzaga chiqarish vositasida ko'proq tundan foydalanadi. Sabab tun qorong'ulik. Tun bo'shliq. Ammo tun ham inson umrining bir bo'lagi-ku. Biz tasavvurimizda tunni oddiylashtiramiz va yuqorida ta'kidlaganimizdek umrimizning bir qismi sifatida idrok qilamiz. Yozuvchi esa tunning belgi va alomatlariga ramziylik vositasida falsafiy hayot mushohada talab ma'nolarini joylaydi. Tasavvurimizdagi tun o'ziga xos belgi sifatleri orqali ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi, ammo yozuvchi bizning

tasavvurimizga his qilinmagan hali anglanmagan baadiy umumlashmalarni sig'irishga erishadi. Aniqrog'i tasavvurimiz miqiyoslarining kengayishiga ta'sir, tunning yangi ma'nolarini, belgi xususiyatlarini ifodalaydi. Tunning muazzamligini, bepayon, qudratli, sehirliligi, mayus ekanligini har kim o'ziga xos tarzda idrok etadi, his qiladi. "Mana tun. Tunda mening boshqalarnikiga o'xshamaydigan umrim boshlanadi. Tunda men o'tgan kunlarim va kelajagim bilan uchrashaman: ular xuddi so'navotgan yulduzlarday ko'z oldimdan bir-bir uchib o'tadi." Asar qahramoni o'z xayollariga g'arq bo'lishining boshlanish nuqtasi. "Tun gullari ham bir-bir ochila boshladi. Aftidan tun o'zining ulug'vorligi va go'zalligini bilsa kerak – men mana shunday oqshomlari kimnidir intiq bo'lib kutaman. Tun shohona libosda asta-sekin hamma narsani o'z izmiga bo'ysundirmoqda" [1, 163-bet]. Shu bilan bir qatorda uni ham o'z izmiga bo'ysundirib xayolot olamiga sho'ng'ishga majbur etadi. Alal oqibat u o'zini erkin his qila boshlaydi. Turli xil ismsiz iztiroblar iskanjasida qiynalayotgan botin uning bilan o'z hissiyotlarini, sirlarini aytib o'rtoqlashadi. "Tun mening xilvat boshpanam. Balki yolg'iz manzirim ham, shu yerdir. Men faqat tun qo'ynidagina, mana shu kichkina qorong'u burchagimdagina o'zimni erkin his etaman, ko'nglimdagi o'ylarni, sirlarni unga aytaman." [1,181-bet]. Fikr, hissiyot oqimi uni tobora o'z domiga tortib boradi. U fikrlar tizginini xayolot olamiga qo'yib yuboradi. Uning qalbida kechayotgan tug'yonlar, ruhiy iztiroblar, tun ramziy ifodasi orqali asar qahramonining biografiasini asta-sekin ochib beradi. "Tun mening umrim" deydi. Zero umrimizning tunlari cheksiz chegarasiz emas, ularning "temir panjaralar"i bor. Yozuvchi "fikr o'yini" vositasida ana shuni his qilib, bu haqiqatni mohiyatini anglashimiz uchun o'z tasavvurlarini ramziy obrazlarga ko'chirib ifoda qiladi. Ana shunday ramziy obrazlardan biri Shayton obrazidir. Odatda biz shayton so'ziga qachon kiramiz. Irodasiz, umidsiz, bekorchi insonlarni shayton tezda o'z komiga ilintiradi. Qissa qahramoni ruhiyatini yorqinroq ko'rish uchun esa, shayton obrazi va u bilan bo'ladigan suhbat jarayonida o'z aksini topadi. "Shayton ham xonamda mana shunday yoz kechlarining birida, hali Sulaymon bilan tanishmasdan

oldin, jurnaldan ishdan ketgan, bekorchilikdan kun bo'yi shishib uxlab, kechalarni esa yo ko'cha kezib, yo kitob o'qib yoki shunchaki shiftga tikilgancha, tush bo'lib-tushga, o'ng bo'lib-o'nga o'xshamaydigan apoq-chapoq xayollar bilan o'tkazadigan, kitoblarga juda kelishtirib yozilgandek, "beorom o'tgan" tunlarda paydo bo'lgan edi" [1,164-bet]. Asar qahramonining irodasining sustligi, ixtiyorini qo'ldan boy berishi uning o'z kuchiga ishonchi sustligidan shayton uning qalbidan joy izlaganmi? Axir ishonch tuyg'usi ma'naviy ma'suliyatdan, ichki zaruratdan, ko'ngil qat'iyatidan vujudga keladi-ku. O'z irodasi kuchiga tayanib, yo'ldan toymaslik insonni gunohga chalinishdan asraydi. To'g'ri bu yerda gunoh yo savob haqida gap borgani yo'q. Ammo hayotdan omadi chopmagan insonning ko'ngil eshigi va derazasi ochilib ketadi. Eshikdan kirgan shamol, derazadan xuddi yelvizakdek chiqib ketaveradi. Yelvizak shamol-ku, essa mayli, biroq, birdan dovul ko'tarilsa nima bo'ladi. Hamma narsa chilparchin bo'lib sinadi-ku. Ollohni o'zi shundan asrasin. Biroq u shaytonni kelishini oldindan sezganday ham bo'ladi. "Meni uni tashrifi hayratga solgani yo'q,-men o'sha paytlari hech narsadan hayratlanmay qo'ygan, uning tashrifini hatto oldindan sezib yurganday ham edim" Demak, irodasi erkin bo'lmagan kimsaning dili ham erkin bo'la olmaydi. U o'z hatti-harakatlariga ma'sul emas va u o'z bosgan qadami ezgulikka yoxud yovuzlikka olib boradimi, buni ham tugal idrok etolmaydi. Biz yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda "hayotdan qo'lini yuvib qo'ltig'iga urgan" shaxs fojeasini yozuvchi asar qahramonini chuqur umidsizlikka tushishi oqibatida uning atrofida "tinmay raqsga tushib borayotgan sharpalar" va "ularning jazavali hansirashlari" hamda uni "g'ilay ko'zlari bilan zimdan kuzatib borayotgan shaytonning yuzidagi g'olibona tabussumi" orqali ifodalab bergan. Zero uning qop-qorong'u bo'shliq qalbini yoritib turgan mitti yulduzchalar hali so'nmagan edi. Ma'nisiz qismat umid tamomila uzilgan joyda paydo bo'ladi. Musulmon xalqi esa, also umidsiz bo'lmaydi. Har bir mo'min "noumid-shayton" ekanligini yaxshi biladi. Ya'ni ko'nglida ollohga e'tiqodi sobit bo'lgan, o'zining yaratganga qul maqomida ekanligini anglagan odam

absurd falsafasini qabul etolmaydi. Negaki, islomiy qarash kishiga yaratganning irodasi tufayli eng og'ir vaziyatdan ham xalos topish mumkinligiga ishonch tuyg'usini beradi. Bu dunyoda saodatga yetmasa, narigi-chin dunyoda yetishiga umid uyg'otadi. Mo'minni hamma narsa tark etishi mumkin, lekin umid hech qachon tark etmaydi. Umid ipining butkul uzilmog'i, mo'minlik rishtasining ham kesilmogidir.

Asardagi ruhiy talqinni yuzaga chiqaruvchi vosita sifatida birinchi galda tun bo'lsa, (chunki tunda asar qahramoni o'z xayollariga erk beradi va u xayollar uni Hosila bilan bog'laydi) ikkinchi galda Hosila ismli qiz obrazidir. Aslida asar qahramonining ruhiy iztirobga tushishining yirik planida Hosila turadi. Sababki baxt va baxtsizlik, fikr va hissiyotlar dialektikasi oqimi va rivoji, tushkinlikning boshlanish nuqtasi ham u bilan bog'liq.

“Men Hosiladan ayrilgan kundan beri oyog'i kuygan chumchuqdek shoxma-shox uchib-qo'nib yuribman. Ko'nglim zardoblanib-zardoblanib, oxiri qurtlab ketdi. Qurtlar u yerdagi hayotdan nishona bo'lgan hamma narsani surib chiqardi. Endi gullay boshlagan orzu daraxtimni ko'z o'ngimda yeb bitirdi, o'zimni esa mana shu kimsasiz tungi xilvatga olib kelib tashladi. Men aslida bu balchiqqa Hosilaha sevib qolganimni aytgan kunimdan bota boshlaganman. Keyin butunlay botib qolganimda esa, Hosila chiqqan kema allqachon men turgan qirg'oqdan jo'nab ketgan edi. U meni bu o'pqonga tashlab, o'zi baxt izlab jo'nab ketdi” [1,168-bet].

Asar qahramonining ruhiy jarayoni, bu jarayonning betinim o'zgaruvchanligi, fikrlar, hislar va kechinmalarning rivoji va oquvchanligi Hosila bilan bog'liq desak, uning shaxsidagi qarama-qarshi fikrlar jangi, his-tuyg'ular kurashi ham u bilan bog'liqdir. “Psixik narsaning ikkita yashash shakli mavjuddir. Birinchisi, psixik narsaning ob'ektiv shakli, bu hayot va faoliyatda aks etadi: bu uning birinchi yashash shaklidir. Ikkinchisi psixik narsaning sub'ektiv shakli-bu refleksiya, introspeksiya, o'z-o'zini tahlil qilish, o'zida psixik narsaning aks etishidir. Demak uning qalbida jo'sh urayotgan tug'yon, fikrlar to'qnashuvi,

kechinmalar, voqealar rivoji o'z-o'zini tahlil qilishga olib keladi va buning asl sababini yechib beradi.

Bu hol uning uchun katta bir fojea edi. Zero bu dunyoda nomalum narsalar haddan ziyod ko'pdir. Ana usha nomalumliklar ichida odamzod o'zini-o'zi yo'qotib qo'ymasligi kerak. Vaholanki Haqqul o'sha nomalumliklarga singib ketgan shaxs edi. Shuning uchun ham uning yozgan asarlarida “ qandaydir mudhishlik dunyosi hukm surardi, qahramonlari qanday yashashni emas, qanday o'lishni orzu qilar va hammasi umridan uch-to'rt kun qolgan kasalmand odamlar edi ” O'z iroda tizginini boy bergan, ruhi so'niq, ko'ngli mute kishining qalbida kechayotgan hislarni asarlariga ko'chishi edi.

Adabiyotlar:

1.Nasirov Azimidin Normamatovich. Features of symbolic interpretation. international journal on orange technologies. tom 3. 71-76. 2021.

2.Nasirov Azimidin Normamatovich. Novel thinking and artistic conflict in shoyim butayev's novels. European journal of molecular & clinical medicine. 7(3. 2020.

3.Nasirov Azimidin Normamatovich. Stylistic units and compositional impartiality. theoretical & applied science. 12 (586-571). 2019.

4.Azimidin Nasirov. Odil Yoqubovning “Ulug ‘bek xazinasi” romanida badiiy obraz yaratish. Uluslararası türk lehçe araştırmaları dergisi (türklad). 4(2). 200-20.